

YANGI O'ZBEKISTON TEATR SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI

Qahhorov Muhammadali Xolbo'ta o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15059641>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan e'tibor, shu bilan birga teatr san'atiga doir ijro etilayotgan hamda kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar xususida tahliliy fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, qaror, farmon, taraqqiyot strategiyasi, teatr, san'at, madaniyat, musiqa.

THE CHARACTERISTICS OF THE THEATER ART OF NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article provides analytical views on the attention paid to the sphere of culture and art by our Honorable President Shavkat Mirziyoyev in New Uzbekistan, as well as on the measures being implemented and planned for the future regarding theatrical art.

Keywords: New Uzbekistan, resolution, decree, development strategy, theater, art, culture, music.

ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕАТРА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье даются аналитические взгляды на внимание, уделяемое сфере культуры и искусства нашим уважаемым Президентом Шавкатом Мирзиёевым в Новом Узбекистане, а также на реализуемые и планируемые на будущее меры в отношении театрального искусства.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, решение, указ, стратегия развития, театр, искусство, культура, музыка.

So'nggi yillarda barcha sohalar qatori madaniyat tizimida, xususan teatrlar hayotida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning teatr sohasiga kata e'tibor qaratayotgani, aynan sohaga doir qabul qilingan farmon va qarorlari milliy teatr san'atini yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xalqimiz o'rtasida teatr san'atiga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Prezident ushbu qaror va farmonlarning amaldagi ijrosi bilan tanishish maqsadida 22-noyabr kuni mutasaddilarning madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, xususan, teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga oid takliflarining taqdimoti bilan tanishdi. Unga ko'ra, 2025-2030-yillarda teatrlarda "Milliy qahramon" va "Inson qadri uchun" mavzularida 32 ta turkum spektakllar yaratish taklif etilmoqda. Albatta, bu bejizga emas.

Yurtboshimiz aynan inson qadrini oshirish hamda jamiyat ichidan milliy qahramonlarni topa bilish haqida ko'p bora ta'kidlamodalar. Ushbu besh yil (2025-2030) davomida aynan teatlardagi asosiy mavzu va g'oyaning "Milliy qahramon" va "Inson qadri uchun" deb vazifa qo'yilishi shuni ko'rsatadiki, III Renessans davrining kelajak avlodi uchun bu mavzulardagi spektakllarning sahnalashtirilishi juda muhim. III Renessans yoshlarining g'oyalarida inson qadrini ulug'lash, shu bilan birga ularning ichidan "Milliy qahramon" larni yetishtirib chiqarishda teatr san'atining o'rni muhim ekanligini isbotlash, teatrni bu jarayonda faol ishtirokchiga aylantirish, rejissyorlarning ham zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada davlat rahbari: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas", – deya ta'kidlaydi [2.77-b]. Shu bilan birga, sahna asarlarini yaratishda ijodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, dramaturgiya va rejissyorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar bildirildi. Xususan, teatr dramaturglari uchun Mahmudxo'ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofotlarni ta'sis etish, "Nigoh" ijodiy loyihasini yo'lga qo'yish, milliy akademik musiqa san'ati bo'yicha kompozitorlar tanlovini o'tkazish taklif etildi.

Takliflar shuni ko'rsatadiki, avvalo teatr sohasida yetuk va professional kadrlarni tayyorlash, xususan, yosh dramaturg va rejissyorlarga keng imkon berish, ularning iqtidori va salohiyatidan to'g'ri foydalanish, zarur taklif va tavsiyalarni berish kabi qator fikrlarni san'at ahli o'rtasida ijobiy kayfiyat uyg'otadi. Shuningdek, iste'dodli dramaturg va rejissyorlarni doimiy rag'batlantirib turish taklif etilgan. 2025-yildan boshlab esa, madaniyat va san'at, axborot-kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar ish haqi miqdorlari oshirilishi belgilanishi buning yaqqol misolidir.

Yosh kadrlarni tayyorlash uchun teatr aktyor va rejissyorlari, teatrshunos va san'atshunoslarning mahorat maktablarini, teatr tanqidchilari va dramaturglar klubini tashkil etilishi belgilanishi, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda har yili nodavlat teatlarga ham davlat buyurtmasi berilishi sohada yangi davr boshlanganligini, bu ijodkorlar uchun katta quvonch, ishonch manbai ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga faqatgina teatrlar va spektakllar bilan cheklanib qolmay, umumiy va oliy ta'lim muassasalarida havaskor teatr jamoalari tuzilib, ular o'rtasida tanlovlar o'tkazilishi, yoshlarni teatlarga doimiy tashriflarini nazarda tutuvchi "Teatr – ibratxonadir" dasturi amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, bundan bilish mumkinki, teatrni ta'lim bilan uzviy bog'lash hamda ularning hamkorligini mustahkamlash, talabalarning teatlarda amaliy mashg'ulotlarini kengaytirish, teatr sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishiga buyurtmalar berish masalalari hozirgi davrda juda dolzarbdir.

Bundan ko‘rinadi-ki, ijodkorlar bilan bir qatorda san‘atshunoslar, ilmiy tadqiqotchilarga ham e‘tibor qilish, tavsiyalar berish lozimdir. “Yana bir muhim masala — madaniyat va san‘at sohasida ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart”, — deya ta‘kidladi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti o‘z nutqida. Takliflarda yana keltirilishicha, kelgusi yildan O‘zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingi tuziladi. Hududlardagi teatr binolari mukammal ta‘mirlanib, zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi. Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga “akademik” maqomi beriladi. Sohani rivojlanishi uchun, albatta, ushbu sohada sog‘lom raqobatning bo‘lishi lozimdir. Shundagina har qanday sohada takomillashish hamda o‘shish bo‘ladi. Ushbu sog‘lom raqobatni keltirib chiqarish uchun esa, bir-biridan qolishmagan raqobatdoshlar hamda yaxshi muhit bo‘lishi kerakdir.

Yuqorida aynan, mana shular haqida so‘z yuritilgani haqida ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san‘at ta‘limini yangi bosqichga ko‘tarish masalalari bo‘yicha ham alohida topshiriqlar berildi. Xususan, iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash, saralash va o‘qitish bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, shuningdek, umumiy o‘rta, maktabdan tashqari, kasbiy, oliy ta‘lim tashkilotlari hamda madaniyat va san‘at tizimidagi ta‘lim muassasalarida o‘quv rejalari va dasturlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash vazifasi qo‘yildi. Yurtboshimiz iqtidorli yoshlarni aynan quyi pog‘onalardan boshlab, ya‘ni bolalar musiqa va san‘at maktablaridagi yosh o‘quvchilarga ko‘proq e‘tibor berish, ular o‘rtasida maktab, tuman, viloyat hamda Respublika miqyosidagi teatr san‘atiga oid ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish va ularni Xalqaro maydonga olib chiqish borasida tegishli vazifalarni berdi.

Shu boisdan, musiqa va san‘at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini budjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi. Umuman olganda, madaniyat va san‘at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklari 2025-yil 1-yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi. Shu bilan birga Prezident “Turon” teatri tanloviga yanada e‘tiborni kuchaytirish, hamda maktab o‘quvchilarini ko‘proq qamrab olishni, alohida ta‘kidlagani, bu teatr sohasini, quyi qatlamdan boshlab isloh qilish kerak ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga Yurtboshimizning: “Har bir maktab o‘quvchisi bitta milliy musiqa asbobini chalishni bilishi kerak”, — deganida ham juda katta ijtimoiy muammoni, millat qiyofasi va uning milliy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalani ifodalab bergan edi [3.119-b].

Teatr sohasini isloh qilish bilan birga, tomoshabinlarni ham teatrlarga jalb etish, ularning etnik qismini faqat oddiy xalq yoki bo‘lmasam, san‘at ahlidan tarkib topmasligini ta‘minlash maqsadida davlat rahbari: “Davlat idoralari rahbar va xodimlari teatrlarga borishi kerak”, — deya alohida topshiriq berdi. Ya‘ni, davlat idoralari xodimlari va rahbarlar teatrlarga tashrif buyurishi uchun har oyning bir kunini “Teatr kuni” deb e‘lon qilishni taklif etdi.

Bundan ko‘rinadiki, davlat xodimlari faqat o‘z ish faoliyati bilan cheklanib qolmasligi, madaniy hordiq olishi, teatrga kelib esa, ibrat olishi hamda dunyo qarashini o‘stirishi lozimdir.

Ushbu islohotlarning ijrosini ta‘minlash uchun esa, Madaniyat vazirligiga Teatr san‘atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish topshirildi. Dasturda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish, dramaturglarga 50 million so‘mdan qalam haqi to‘lash, ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishini yo‘lga qo‘yish hamda yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofotni ta‘sis etish nazarda tutiladi.

Hozirda, yangi ishlab chiqilgan “Taraqqiyot strategiyasi” da ham ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga alohida bo‘lim ajratildi va uning ichiga 2022-2026-yillar mobaynida madaniyat va san‘at sohasida amalga oshiriladigan ishlar rejasi kiritildi. Unda: “Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha maxsus dasturlar ijrosi ta‘minlanadi.

Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantirish, xalq hunarmandchiligini qo‘llab-quvvatlashga doir aniq va samarali ishlar olib boriladi”, – deya alohida ta’kidlanadi[1.253-b]. Bu esa sohaga qaratilgan yuksak e’tibor namunasidir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 b.
2. Saidov. A. Yangi O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy falsafasi [Matn]/ A.Saidov. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi kutubxonasi. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2023. – 428 b.
3. Salimov. O. Yangi O‘zbekiston davlati[Matn]/ O.Salimov. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2023. – 240 b.
4. Мухторова, М. (2022). ИСАМАТ ЭРГАШЕВ КИНОКОМЕДИЯЛАРИ. Science and innovation in the education system, 1(5), 20-26.
5. Mukhtorova, M. (2021). National Flavour in Contemporary Uzbek Cinema Comedy. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(5), 99-106.
6. Muxtorova, M. (2023). УЗБЕКСКОЙ КИНОКОМЕДИИ–80 ЛЕТ! Жанровый тематический обзор узбекской кинокомедии. Modern Science and Research, 2(10), 190-197.
7. Мухторова, М. (2022). “ЧИНОР ТАГИДАГИ ДУЭЛ” ФИЛЬМИДА ХАРАКТЕР МАСАЛАСИ. Oriental Journal of Social Sciences, 2(1), 84-90.